Abstract. This article analyzes the concentration of industrial production across the 14 regions of the Republic of Uzbekistan and Special Economic Zones (SEZs) using the Herfindahl–Hirschman Index (HHI) over the period 2018–2024. The findings indicate that SEZs contributed to a relatively more balanced territorial distribution of industrial activity. In particular, the decline in HHI values during 2018–2021 reflects an increasing diversification of industrial production across regions. However, in subsequent years, the dominance of Jizzakh and Tashkent regions in industrial output led to a renewed increase in the index values. The study provides practical recommendations for improving industrial policy, strengthening regional economic balance, and evaluating the effectiveness of SEZs from the perspective of territorial development.

Keywords: Herfindahl–Hirschman Index, industrial concentration, special economic zones, regional development, Uzbekistan economy.

Аннотация. В данной статье с использованием индекса Херфиндаля–Хиршмана (HHI) проанализирована концентрация промышленного производства в разрезе 14 регионов Республики Узбекистан и специальных экономических зон (СЭЗ) в динамике 2018–2024 годов. Результаты исследования показывают, что специальные экономические зоны способствовали более сбалансированному территориальному распределению промышленной деятельности. В частности, снижение значений индекса в 2018–2021 годах свидетельствует о диверсификации промышленного производства по регионам. Однако в последующие годы вследствие высокой концентрации промышленного производства в Джизакской и Ташкентской областях наблюдалась повторная тенденция роста индекса. Полученные результаты позволяют сформулировать практические рекомендации по совершенствованию промышленной политики, укреплению межрегионального экономического баланса и оценке эффективности деятельности СЭЗ с точки зрения территориального развития.

Ключевые слова: индекс Херфиндаля–Хиршмана, концентрация промышленного производства, специальные экономические зоны, региональное развитие, экономика Узбекистана.

KIRISH

Hududiy iqtisodiy rivojlanishning muvozanatli shakllanishi va sanoat ishlab chiqarishining makon bo'yicha samarali taqsimlanishi zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda sanoat salohiyatining ayrim hududlarda haddan tashqari to'planishi yoki aksincha, yetarli darajada rivojlanmagan holda qolishi iqtisodiy samaradorlik, bandlik darajasi

va hududlararo rivojlanish tafovutlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyasini baholash va uni samarali boshqarish masalasi iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2016-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida sanoat ishlab chiqarishini hududlar bo'yicha kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda hududiy sanoat salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) tizimini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash, yangi sanoat korxonalarini tashkil etish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirish maqsad qilingan.

Sanoat va bozor tarkibini baholashda keng qo'llaniladigan usullardan biri Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) hisoblanadi. Mazkur indeks dastlab bozor monopolizatsiyasi darajasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan bo'lib, Albert O. Hirschman (1945) va Orris C. Herfindahl (1950) tadqiqotlarida nazariy asoslangan. Keyinchalik ushbu indeks hududiy iqtisodiyotda, jumladan, ishlab chiqarish taqsimoti, eksport konsentratsiyasi, investitsiyalar geografiyasi va hududiy rivojlanish darajasini tahlil qilishda ham keng qo'llanila boshlandi (Rhoades, 1993; Theil, 1967).

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyasini viloyatlar va maxsus iqtisodiy zonalar kesimida Herfindahl–Hirschman indeksi yordamida 2018–2024-yillar dinamikasida taqqoslash hamda maxsus iqtisodiy zonalarining sanoat geografiyasiga qo'shayotgan hissasini miqdoriy jihatdan baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari sanoat siyosatini takomillashtirish, hududiy iqtisodiy muvozanatni mustahkamlash va maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining samaradorligini baholash uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) dastlab Albert O. Hirschman (1945) tomonidan xalqaro savdo konsentratsiyasini o'lchash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lsa, keyinchalik Orris C. Herfindahl (1950) tomonidan mis sanoatini tahlil qilish uchun mustaqil ravishda qo'llanilgan. Keyinchalik ushbu indeks bozor tarkibini va monopolizatsiya darajasini baholashning eng muhim vositalaridan biriga aylandi. AQSh Adliya vazirligi hamda Federal savdo komissiyasi tomonidan kompaniyalar qo'shilishi va bozor raqobatini baholashda rasmiy indikator sifatida qabul qilingan (U.S. Department of Justice & Federal Trade Commission, 2010). Rhoades (1993) esa HHI bank sektori konsentratsiyasini o'lchashda eng ishonchli va izchil ko'rsatkichlardan biri ekanligini ilmiy asoslab bergan.

Ilmiy adabiyotlarda HHI indeksining talqini uchun standart mezonlar shakllangan bo'lib, odatda 1500 dan past ko'rsatkich past konsentratsiya, 1500–2500 oralig'i o'rtacha konsentratsiya, 2500 dan yuqori ko'rsatkich esa yuqori konsentratsiya darajasini anglatadi (Curry & George, 1983; U.S. Department of Justice, 2010). Mazkur mezonlar xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Hududiy iqtisodiyot nazariyasida sanoat konsentratsiyasi masalasi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Paul Krugman (1991) o'zining mashhur *“Geography and Trade”* asarida sanoat ishlab chiqarishining ayrim hududlarda to'planishini aglomeratsiya iqtisodiyoti orqali izohlab, ushbu jarayon o'z-o'zini kuchaytiruvchi xususiyatga ega ekanligini ko'rsatgan. Ellison va Glaeser (1997) sanoat guruhlanishini baholash uchun maxsus indeks ishlab chiqarishgan bo'lsa, Fan va Scott (2003) rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat konsentratsiyasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini tadqiq qilgan. Combes, Mayer va Thisse (2008) esa geografik iqtisodiyot doirasida hududiy konsentratsiya modellarini keng tahlil qilib, sanoatning hududiy joylashuvi iqtisodiy samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan.

Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) zamonaviy sanoat siyosatining muhim instrumentlaridan biri sifatida 1960–1970-yillardan boshlab keng rivojlana boshladi. World Bank tadqiqotchilari Farole va Akinci (2011) 130 dan ortiq mamlakat tajribasini o'rganib, MIZlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan institutsional muhit, infratuzilma sifati va strategik joylashuv bilan bog'liqligini ta'kidlagan. Zeng (2015) esa Xitoy tajribasi asosida MIZlarning hududiy rivojlanishga ta'sirini o'rganib, ular sanoatni hududlar bo'yicha tarqatishda muhim rol o'ynashi bilan birga, ayrim tayanch hududlarda sanoat konsentratsiyasini kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari kontekstida Linn (2012) maxsus iqtisodiy zonalarining O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatini alohida ta'kidlagan. So'nggi yillarda O'zbekistonda MIZlar faoliyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Jumladan, Ruzibaeva va Xotamqulova (2022) erkin iqtisodiy zonalarda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari va hududiy ixtisoslashuv masalalarini tahlil qilgan. Boymurodov va Hazratqulov (2026) 2018–2024-yillar davomida MIZlar orqali investitsiyalar va sanoat ishlab chiqarishining o'sishini empirik jihatdan asoslab, mavjud infratuzilma muammolarini aniqlagan. Sabirov va Akbarova (2023) MIZlar rivojlanishining strategik yo'nalishlarini ishlab chiqqan bo'lsa, Atmarudov (2025) energiya ta'minoti, logistika va ma'muriy samaradorlik bilan bog'liq masalalarni tahlil qilgan.



Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston misolida HHI metodologiyasini hududlar va MIZlar kesimida 2018–2024-yillar dinamikasida qo'llash orqali sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyasini kompleks baholashni maqsad qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqot uchun ikkita asosiy statistik manba tanlab olindi:

hududlar kesimida yillik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi;

maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) ishtirokchilari tomonidan amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar va xizmatlar) hajmi bo'yicha ma'lumotlar.

Tahlil davri sifatida 2018–2024-yillar oralig'i tanlandi. Mazkur davr hududiy sanoat ishlab chiqarishi hamda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatiga oid statistik ma'lumotlarning muntazam shakllanganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, aynan ushbu yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar, hududiy sanoat siyosati va MIZlar faoliyatining sezilarli faollashuvi kuzatilgan.

Tadqiqotda sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyasini baholash uchun Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) metodologiyasidan foydalanildi. Mazkur indeks iqtisodiy faoliyatning hududlar bo'yicha qay darajada jamlanganligini aniqlash imkonini beradi. HHI quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$HHI = \sum_{i=1}^n s_i^2 \times 10000$$

bu yerda:

$$s_i = \frac{Q_i}{Q_{jami}}$$

bunda:

- Q_i — i-hudud yoki i-maxsus iqtisodiy zonaning sanoat ishlab chiqarish hajmi;
- Q_{jami} — mamlakat yoki tanlangan guruh bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmi;
- s_i — hududning umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi.

Hisob-kitoblarda barcha hududlar va MIZlarning sanoat ishlab chiqarishdagi foiz ulushlari kvadratga oshirilib, yig'indisi 10 000 ga ko'paytirildi. HHI qiymatining yuqori bo'lishi sanoat ishlab chiqarishining ayrim hududlarda yuqori darajada jamlanganligini, past qiymatlar esa ishlab chiqarishning hududlar bo'yicha nisbatan muvozanatli taqsimlanganligini anglatadi.

Tadqiqot doirasida HHI indeksleri ikki yo'nalishda hisoblandi:

O'zbekiston viloyatlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi konsentratsiyasi;

maxsus iqtisodiy zonalar kesimida sanoat ishlab chiqarishi konsentratsiyasi.

Olingan natijalar dinamik va qiyosiy tahlil usullari yordamida baholandi hamda hududiy sanoat siyosati va maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining hududiy muvozanatga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

HHI	(Herfindahl–Hirschman indeksi (0 dan 10 000 gacha
s_i	i-hududning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi ($0 \leq s_i \leq 1$)
Q_i	i-hududning sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd yoki mln so'm)
Q_{jami}	Barcha hududlar bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmi
n	Hududlar (viloyatlar yoki MIZlar) soni

Indeksning chegaraviy qiymatlari quyidagicha talqin qilinadi:

HHI oralig'i	Konsentratsiya darajasi	Talqin
< 1 500	Past (tarqoq)	Ishlab chiqarish nisbatan teng taqsimlangan
1 500 – 2 500	O'rtacha	Ma'lum hududlarda to'planish kuzatiladi
≥ 2 500	Yuqori (to'plangan)	Dominant ishtirokchi mavjud

Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda har bir yil uchun O'zbekiston Respublikasining 14 ta hududi bo'yicha sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmdagi ulushi hisoblab chiqildi. Ikkinchi bosqichda Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) qiymatlari viloyatlar va maxsus iqtisodiy zonalar kesimida alohida hisoblandi. Uchinchi bosqichda esa yillar kesimida indeks dinamikasi hamda hududlar va MIZlar bo'yicha shakllangan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlar qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadvalda 2018–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining viloyatlari hamda maxsus iqtisodiy zonalar kesimida hisoblangan Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) qiymatlari keltirilgan. Jadvalda konsentratsiya darajasini iqtisodiy adabiyotlarda qabul qilingan mezonlar asosida uch toifaga ajratish qo'llanildi: past konsentratsiya (tarqoq tuzilma), o'rtacha konsentratsiya va yuqori konsentratsiya (1-jadval).


1-jadval
Viloyatlar va MIZlar bo'yicha HHI qiymatlari (2018–2024)

Ko'rsatkich	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Viloyatlar bo'yicha HHI	1158.3	1153.2	1249.3	1259.7	1222.6	1188.9	1199.3
MIZlar bo'yicha HHI	2332.3	2148.8	2188.2	1813.8	1794.4	1954.9	1954.7
Farq (MIZ - Viloyat)	+1174.0	+995.6	+938.9	+554.1	+571.8	+766.0	+755.4
Viloyat kategoriyasi	Tarqoq	Tarqoq	Tarqoq	Tarqoq	Tarqoq	Tarqoq	Tarqoq
MIZ kategoriyasi	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, viloyatlar kesimida Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) butun tahlil davri davomida 1153–1260 oralig'ida shakllangan bo'lib, bu ko'rsatkich xalqaro mezonlarga ko'ra past konsentratsiya yoki "tarqoq" tuzilma kategoriyasiga kiradi. Mazkur holat sanoat ishlab chiqarishining O'zbekistonning 14 ta hududi o'rtasida nisbatan muvozanatli taqsimlanganligini anglatadi. Ya'ni, sanoat ishlab chiqarishi ayrim hududlarda haddan tashqari jamlanib qolmagan va hududlararo sanoat faolligi ma'lum darajada diversifikatsiyalashgan.

Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) kesimida esa HHI qiymatlari 1794–2332 oralig'ida shakllanib, o'rtacha konsentratsiya darajasiga mos keladi (1-rasm).



1-rasm. HHI dinamikasi: viloyatlar va MIZlar kesimida (2018–2024)¹

1-rasmda ko'rsatilganidek, maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) bo'yicha Herfindahl–Hirschman indeksi 2018-yildagi 2332.3 ko'rsatkichidan 2021-yilga kelib 1813.8 gacha sezilarli darajada kamaygan. Mazkur tendensiya ushbu davrda MIZlar geografiasining kengaygani, yangi hududlarda maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilgani hamda sanoat ishlab chiqarishining hududlar bo'yicha nisbatan kengroq taqsimlanganligini aks ettiradi. Natijada sanoat faoliyatining hududiy diversifikatsiyasi kuchayib, konsentratsiya darajasi pasaygan.

Biroq 2022–2024-yillarda MIZlar bo'yicha HHI qiymatlari 1954–1955 oralig'ida shakllanib, nisbatan barqaror holatni saqlab qolgan.

2-jadvalda esa 2024-yil yakunlari bo'yicha har bir viloyatning umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi hamda Herfindahl–Hirschman indeksini shakllantiruvchi komponentlar keltirilgan (2-jadval).

2-jadval


Viloyatlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish ulushi va HHI komponentlari (2024)

№	Viloyat / Hudud	Ulush, %	HHI kom. ($si^2 \times 10^4$)	Rang daraja
1	Toshkent shahri	19.91%	396.41	Yuqori
2	Navoiy viloyati	16.88%	284.93	Yuqori
3	Toshkent viloyati	16.07%	258.24	Yuqori
4	Andijon viloyati	10.51%	110.46	O'rta
5	Farg'ona viloyati	5.32%	28.30	O'rta
6	Samarqand viloyati	5.27%	27.77	O'rta
7	Buxoro viloyati	4.90%	24.01	Past
8	Qashqadaryo viloyati	4.54%	20.61	Past
9	Namangan viloyati	3.68%	13.54	Past
10	Xorazm viloyati	3.30%	10.89	Past
11	Jizzax viloyati	2.89%	8.35	Past
12	Qoraqalpog'iston	2.82%	7.95	Past
13	Sirdaryo viloyati	2.33%	5.43	Past
14	Surxondaryo viloyati	1.60%	2.56	Past

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

2-rasmda 2024-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston hududlarining umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi keltirilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat ishlab chiqarishining asosiy qismi Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlarida jamlangan. Xususan, Toshkent shahri umumiy sanoat ishlab chiqarishining 19,91 foizini tashkil etib, mamlakatdagi eng yirik sanoat markazi sifatida yetakchi o'rinni egallagan. Navoiy viloyatining ulushi 16,88 foizni, Toshkent viloyatining ulushi esa 16,07 foizni tashkil etgan (2-rasm).

1 Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi



2-rasm. Viloyatlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish ulushi (2024-yil)²

3-jadvalda 2024-yil yakunlari bo'yicha maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) kesimida sanoat ishlab chiqarishining hududiy taqsimoti hamda Herfindahl–Hirschman indeksini shakllantiruvchi komponentlar keltirilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, viloyatlar kesimida eng yuqori ulush Toshkent shahri (19,91%), Navoiy viloyati (16,88%) va Toshkent viloyatiga (16,07%) to'g'ri keladi. Mazkur uch hudud birgalikda 2024-yilda respublika jami sanoat ishlab chiqarishining 52,86 foizini shakllantirgan (3-jadval).

3-jadval


MIZlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish ulushi va HHI komponentlari (2024)

№	Viloyat / Hudud (MIZ)	Ulush, %	HHI kom. (si ² ×10 ⁴)	Rang
1	Jizzax viloyati	31.95%	1020.80	Dominant
2	Toshkent viloyati	23.22%	539.17	Yuqori
3	Navoiy viloyati	13.01%	169.26	Yuqori
4	Samarqand viloyati	10.71%	114.70	Yuqori
5	Farg'ona viloyati	7.38%	54.46	O'rta
6	Sirdaryo viloyati	6.38%	40.70	O'rta
7	Buxoro viloyati	2.69%	7.24	Past
8	Namangan viloyati	2.66%	7.08	Past
9	Andijon viloyati	0.96%	0.92	Past
10	Xorazm viloyati	0.60%	0.36	Past
11	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0.26%	0.07	Past
12	Surxondaryo viloyati	0.13%	0.02	Past
13	Qashqadaryo viloyati	0.03%	0.00	Past
14	Toshkent shahri	0.00%	0.00	Past

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

MIZlar bo'yicha eng katta ulushni Jizzax viloyati (31.95%) egallaydi. Bu asosan Jizzax erkin iqtisodiy zonasidagi yirik sanoat majmualarining rivojlanishi bilan bog'liq. Keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati (23.22%) va Navoiy viloyati (13.01%) turadi. Qashqadaryo viloyati 2024-yilda endigina MIZ tizimiga qo'shilgan (0.03% ulush), Toshkent shahri esa bu davrda MIZ ko'rsatkichlarini aks ettirmagan (3-rasm).

2 Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi



3-rasm. MIZlar sanoat ishlab chiqarishida viloyatlar ulushi (2024)³

Tadqiqot natijalari bir qator muhim ilmiy va amaliy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, viloyatlar kesimida Herfindahl–Hirschman indeksining (HHI) butun tahlil davri davomida 1153–1260 oralig'ida shakllanishi sanoat ishlab chiqarishining hududlar bo'yicha nisbatan muvozanatli va "tabiiy" taqsimlanganligini ko'rsatadi. Mazkur natija Ellison va Glaeser (1997) tomonidan ishlab chiqilgan sanoat guruhlanishi nazariyasidagi yuqori konsentratsiyalashgan modellarga nisbatan ancha tekis taqsimotni ifodalaydi hamda O'zbekiston iqtisodiyotining ma'lum darajada polisentrik tuzilishga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) bo'yicha HHI ko'rsatkichining 2018-yildagi 2332 darajadan 2021-yilda 1814 gacha pasayishi MIZ siyosatining dastlabki bosqichda hududiy sanoat konsentratsiyasini kamaytirish va sanoat faoliyatini yangi hududlarga yoyishdagi ijobiy natijalarini ko'rsatadi. Ushbu natija Farole va Akinci (2011) tomonidan ilgari surilgan "MIZlar hududiy rivojlanishni rag'batlantiradi" degan nazariy xulosani O'zbekiston misolida empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Uchinchidan, 2022–2024-yillarda MIZlar bo'yicha HHI ko'rsatkichining 1954–1955 oralig'ida barqarorlashib qolishi hududiy muvozanat nuqtayi nazaridan muhim e'tibor talab etuvchi holat hisoblanadi. Xususan, Jizzax viloyatining 31,95 foiz va Toshkent viloyatining 23,22 foizlik ulushi ayrim hududlarning MIZ tizimidagi dominant mavqei kuchaytirganligini ko'rsatadi. Bu esa MIZ siyosati orqali sanoatni hududlar bo'yicha tarqatish jarayoni davom etayotgan bo'lsa-da, ayrim iqtisodiy markazlarning ustunligi hali ham saqlanib qolayotganini anglatadi. Mazkur holat Zeng (2015) tomonidan Xitoy tajribasi asosida qayd etilgan "dastlabki diversifikatsiyadan so'ng qayta konsentratsiyalanish" tendensiyasi bilan hamohangdir.

To'rtinchidan, Toshkent shahrining umumiy sanoat ishlab chiqarishida eng yuqori ulushga ega bo'lishiga qaramay (19,91%), MIZ statistikalarida bevosita qatnashmasligi maxsus iqtisodiy zonalar siyosatining poytaxtdan tashqari hududlarni rivojlantirishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bu esa hududiy sanoat siyosatining maqsadli va muvozanatli shakllantirilayotganini bildiruvchi ijobiy omil sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, Surxondaryo viloyati (1,60%) va Qoraqalpog'iston Respublikasining (2,82%) umumiy sanoat ishlab chiqarishida ham, MIZ tizimida ham past ulushga ega bo'lishi hududlarning geografik joylashuvi, infratuzilma ta'minoti, logistika imkoniyatlari hamda xomashyo bazasidagi obyektiv tafovutlar bilan izohlanadi (Linn, 2012). Shu sababli mazkur hududlarda maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish, investitsiya jozibadorligini oshirish va sanoat infratuzilmasini kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyasi 2018–2024-yillar kesimida Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) metodologiyasi asosida tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari mamlakatda sanoat ishlab chiqarishining hududiy taqsimoti va maxsus iqtisodiy zonalarining (MIZ) hududiy rivojlanishga ta'sirini ilmiy jihatdan baholash imkonini berdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, viloyatlar kesimida HHI ko'rsatkichlari barcha yillar davomida 1153–1260 oralig'ida

3 Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

shakllanib, past yoki “tarqoq” konsentratsiya darajasini namoyon etdi. Mazkur holat sanoat ishlab chiqarishining O‘zbekistonning 14 ta hududi bo‘yicha nisbatan muvozanatli taqsimlanganligini hamda iqtisodiyotning polisentrik rivojlanish modeliga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Maxsus iqtisodiy zonalar kesimida esa HHI ko‘rsatkichlari 1794–2332 oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha konsentratsiya darajasiga mos kelishi aniqlandi. Xususan, 2018–2021-yillarda indeksning 2332 dan 1814 gacha pasayishi MIZlar geografiyasining kengaygani, yangi hududlarda sanoat loyihalarining amalga oshirilgani va hududiy diversifikatsiyaning kuchayganligini anglatadi. Biroq 2022–2024-yillarda indeks qiymatlarining nisbatan barqarorlashuvi Jizzax va Toshkent viloyatlarining MIZ tizimidagi yetakchi mavqei saqlanib qolayotganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, MIZlar va viloyatlar bo‘yicha HHI ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi sezilarli farq — har yili o‘rtacha 600–1200 punkt oralig‘ida bo‘lishi — maxsus iqtisodiy zonalarda sanoat ishlab chiqarishi umumiy sanoat ishlab chiqarishiga nisbatan ancha yuqori darajada konsentratlashganligini tasdiqlaydi. Bu holat ayrim MIZlarning investitsiya, infratuzilma va ishlab chiqarish salohiyati jihatidan ustun mavqega ega ekanligini bildiradi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasi kabi periferiya hududlarida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada rivojlantirish hududiy sanoat muvozanatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur hududlarda qo‘shimcha investitsiya rag‘batlari, logistika infratuzilmasini yaxshilash va sanoat loyihalarini kengaytirish orqali MIZlar bo‘yicha HHI ko‘rsatkichlarini kelgusida 1500 dan past darajaga tushirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Atmarudov, B. N. (2025). *Analysis of the current state of development and management of special economic zones operating in our country*. American Journal of Economics and Business Management, 8(11), 5303–5307. [American Journal of Economics and Business Management](#)
2. Boymurodov, J. K., & Hazratqulov, U. H. (2026). *Erkin iqtisodiy zonalar orqali hududiy rivojlanishni jadallashtirish mexanizmlari*. Innovations in Science and Technologies, 3(4), 56–62. [Innovations in Science and Technologies](#)
3. Combes, P.-P., Mayer, T., & Thisse, J.-F. (2008). *Economic Geography: The Integration of Regions and Nations*. Princeton University Press. [Princeton University Press](#)
4. Curry, B., & George, K. D. (1983). Industrial concentration: A survey. *The Journal of Industrial Economics*, 31(3), 203–255. [Wiley Online Library](#)
5. Ellison, G., & Glaeser, E. L. (1997). Geographic concentration in U.S. manufacturing industries: A dashboard approach. *Journal of Political Economy*, 105(5), 889–927. [University of Chicago Press Journals](#)
6. Fan, C. C., & Scott, A. J. (2003). Industrial agglomeration and development: A survey of spatial economic issues in East Asia and a statistical analysis of Chinese regions. *Economic Geography*, 79(3), 295–319. [Taylor & Francis Online](#)
7. Farole, T., & Akinci, G. (Eds.). (2011). *Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges, and Future Directions*. World Bank Publications. [World Bank Publications](#)
8. Herfindahl, O. C. (1950). *Concentration in the Steel Industry* (Doctoral dissertation). Columbia University.
9. Hirschman, A. O. (1945). *National Power and the Structure of Foreign Trade*. University of California Press.
10. Paul Krugman (1991). *Geography and Trade*. MIT Press. [MIT Press](#)
11. Linn, J. F. (2012). *Central Asian Economic Integration: Benefits, Obstacles and Progress*. Brookings Institution Policy Brief, 2012–04. Brookings Institution
12. Rhoades, S. A. (1993). The Herfindahl–Hirschman Index. *Federal Reserve Bulletin*, 79(3), 188–189. Federal Reserve Archive
13. Ruzibaeva, N. Kh., & Khotamkulova, M. S. (2022). *Free economic zones in the Republic of Uzbekistan and ways to attract investment in them*. Academy of Entrepreneurship Journal, 28(3), 1–7. [Academy of Entrepreneurship Journal](#)
14. Sabirov, Kh. N., & Akbarova, A. (2023). *Strategy for the development of free economic zones in Uzbekistan*. Kokand University Herald, 9, 7–10. [Kokand University Herald](#)
15. Theil, H. (1967). *Economics and Information Theory*. North-Holland Publishing Company.
16. U.S. Department of Justice & Federal Trade Commission. (2010). *Horizontal Merger Guidelines*. Washington, D.C. [U.S. Department of Justice](#)
17. Zeng, D. Z. (2015). *Global Experiences with Special Economic Zones: Focus on China and Africa*. World Bank Policy Research Working Paper No. 7240. [World Bank Open Knowledge Repository](#)

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100